QASHQADARYO VILOYATI
CHIROQCHI TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

181200, Chiroqchi shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 19-uy. Faks: (+99875)562-18-55, t.chiroqchi@exat.uz

2022 - yil 1 - avgust 351-4-66-Q/22 Chiroqchi tuman hokimligi

Chiroqchi tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy tusdagi ayrim qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF–6075-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son Farmonida mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Chiroqchi tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (S.Rayimqulov), mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan kundan kuchga kirishi belgilab qo‘yilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimning birinchi o‘rinbosari Sh.Tadjiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **N.Erkayev**

Chiroqchi tuman hokimining
2022 yil 1 avgustdagi
351-4-66-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Chiroqchi tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Chiroqchi tuman hokimining 30-avgust 2019-yildagi “Chiroqchi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi X-3331/08-sonli qarori.